Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 11 (2026) Published November 05, 2026

PROCESSES OF SOCIALIZATION AND THE TRANSFORMATION OF CULTURE IN THE CONTEXT OF INNOVATIVE DEVELOPMENT

Ubaydullayeva Guliza

Tashkent University of Economics and Technology Lecturer (Namangan Branch)

Abstract

This article examines how socio-cultural reforms within society lead to changes in its overall character, driven by broader socio-political shifts. This is of significant importance for a society undergoing renewal, as it increases the need for the implementation of strategic planning. The study highlights that, in line with national policy decisions, fostering a healthy socio-spiritual environment and elevating the system for supporting families and women to a new level serve as effective mechanisms for the transformation of society.

Keywords

cultural processes, transformation, culture, process, globalization, national, technology, technogenic, space, time, society, renewal, development strategy, transformation, socio-cultural activity, family, women.

“INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA MADANIYATNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONLARI VA TRANSFORMATSIYASI”

Ubaydullayeva Guliza

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti Namangan manzili o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy islohotlar natijasida uning qiyofasi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi tadqiq etilgan. Bu esa yangilanayotgan jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, strategik dasturlashlarning qo‘llanilishiga ehtiyojni oshiradi. Mamlakatda qabul qilinayotgan qarorlarga ko‘ra jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish jamiyat transformatsiyalashuvining samarali usuli ekanligi ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: madaniy jarayonlar, transformatsiya, madaniyat, jarayon, global-lashuv, milliy, texnologiya, texnogen, makon, zamon, jamiyat, yangilanish, taraqqiyot

strategiyasi, transformatsiyalashuv, ijtimoiy-madaniy faoliyat, oila, xotin-qizlar.

«ПРОЦЕССЫ СОЦИАЛИЗАЦИИ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛЬТУРЫ В КОНТЕКСТЕ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ»

Убайдуллаева Гулиза

Ташкентский университет экономики и технологий Преподаватель (Наманганский филиал)

Аннотация. В статье рассматривается, как социокультурные реформы в обществе приводят к изменениям его общего облика, что обусловлено более широкими общественно-политическими сдвигами. Это имеет особое значение для общества, находящегося на этапе обновления, поскольку возрастает потребность в реализации стратегического планирования. В работе подчеркивается, что в соответствии с решениями национальной политики, формирование здоровой социально-духовной среды, а также вывод системы поддержки семьи и женщин на качественно новый уровень, выступают эффективными механизмами трансформации общества.

Ключевые слова: культурные процессы, трансформация, культура, процесс, глобализация, национальный, технология, техногенный, пространство, время, общество, обновление, стратегия развития, социокультурная деятельность, семья, женщины.

Kirish

Bugungi globallashib borayotgan davrda zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyatning tuzilishi har jabhada o‘zining strategik darajalarini ko‘rsatib bormoqda, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy modernizatsiya jarayonlari jamiyat madaniy hayotiga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Transmilliy madaniy aloqalarning kuchayishi hamda ijtimoiy ongdagi transformatsiyalar madaniyatning mazmuni va shakliga jiddiy ta’sir qilmoqda. Bunday sharoitda madaniyat nafaqat an’analar va urf-odatlar majmuasi, balki jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024 yil 4 iyulda bo‘lib o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqida bildirgan

fikrlarini keltirishni joiz deb topdik: “jadallashtirilgan raqamli transformatsiya. Bizning fikrimizcha, raqamli iqtisodiyotga o‘tish, “sun’iy intellekt”ni, ilg‘or IT qarorlarni joriy etish mamlakatlarimiz raqobatbardoshligida hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shu borada bilimlar, tajriba va eng yaxshi amaliyotlar almashuvi, IT parklarning tizimli hamkorligini rivojlantirish maqsadida “SHHT kelajak texnologiyalari” dasturini ishlab chiqish tarafdorimiz”.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullariga ehtiyoj mavjud bo‘lib, bu ehtiyoj “Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini...” belgilovchi «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan, yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida [1] ilgari surilgan tub islohotlar bilan belgilanmoqda. Shuningdek, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish masalalari alohida farmon bilan mustahkamlangan [2].

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, madaniy jarayonlarning transformatsiyalashuvi bir vaqtning o‘zida taraqqiyot imkoniyatlarini ham, mafkuraviy tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Tadqiqotning maqsadi – innovatsion rivojlanish sharoitida madaniy jarayonlar transformatsiyasining mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan ochib berish va uning O‘zbekiston ijtimoiy-ma’naviy hayotidagi ahamiyatini asoslashdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: “madaniy transformatsiya” tushunchasini aniqlashtirish; xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlarini tahlil qilish; internetning madaniy jarayonlarga ta’sirini yoritish; raqamli transformatsiyaning asosiy maqsad va kutilayotgan natijalarini asoslash.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Madaniy jarayonlar transformatsiyasi masalasi xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli jihatlardan o‘rganilgan. Quyida ularning qarashlari tahlil qilinib, muallifning ularga munosabati bildiriladi.

Xorijiy olimlar qarashlari. Axborot jamiyati fenomeni D.Bell, M.Kastells, A.Giddens kabi mutafakkirlar asarlarida nazariy jihatdan asoslangan. Amerikalik sotsiolog D.Bell postindustrial jamiyatda nazariy bilim va axborot ishlab chiqarishning markaziy resursiga aylanishini ko‘rsatgan [11]. Biz bu qarashni madaniy o‘zgarishlarning texnologik asosini to‘g‘ri belgilaydi, deb hisoblaymiz; biroq madaniyatning qadriyatlar darajasidagi o‘zgarishlari uning tadqiqotlarida yetarlicha yoritilmagan, deb o‘ylaymiz. M.Kastells “tarmoq jamiyati” konsepsiyasida axborot texnologiyalari ta’sirida madaniy jarayonlar tarmoqlar orqali tezlashishini asoslagan [12]. Muallif sifatida bu g‘oyani internetning madaniy va mafkuraviy ta’sir vositasiga aylanishini izohlashda o‘rinli deb bilamiz, ammo uni milliy ma’naviy qadriyatlarni himoya qilish nuqtai nazaridan to‘ldirish zarur, deb hisoblaymiz. A.Giddens zamonaviylik oqibatlarini tahlil qilib, globallashuvni uzoqdagi voqealarning mahalliy hayotga ta’siri, makon va zamonning bir-biridan “ajralishi” sifatida talqin etadi [13]. Bu fikr maqolamizdagi “makon” va “zamon” tayanch tushunchalarini izohlashda bizga mos keladi.

Falsafiy yondashuvda G.V.F.Gegel madaniyatni mutlaq ruhning o‘z-o‘zini anglash jarayoni sifatida talqin qilgan [14]. Biz bu ta’limotni madaniy transformatsiyaning ma’naviy mohiyatini tushunishda muhim nazariy asos, deb baholaymiz, biroq texnogen muhit sharoitidagi o‘zgarishlarni faqat shu yondashuv bilan tushuntirib bo‘lmaydi, deb hisoblaymiz. K.Girts madaniyatni ma’nolar va ramzlar tizimi sifatida ko‘radi [15]; bu qarash bizning madaniy transformatsiyani qadriyatlar, ramzlar va tafakkur shakllarining o‘zgarishi sifatida ta’riflashimizga yaqin. Z.Bauman “suyuq modernlik” tushunchasi bilan zamonaviy jamiyatda barqaror shakllarning tez o‘zgarib borishini ta’kidlaydi [16]. Muallif bu fikrga qisman qo‘shiladi, lekin shunday o‘zgaruvchanlik sharoitida milliy qadriyatlar jamiyat barqarorligining tayanchi bo‘lib qolishi kerak, degan nuqtai nazarni ilgari suradi. A.Appadurai globallashuvni axborot, texnologiya va g‘oyalarning

chegaralardan oshib o‘tuvchi madaniy oqimlari sifatida tavsiflaydi [17]; bu yondashuv “texnogen” muhit tushunchasini asoslashda foydali. S. Xantington esa madaniy omillarni xalqaro munosabatlarning asosiga qo‘yib, sivilizatsiyalar to‘qnashuvi g‘oyasini ilgari surgan [18]. Biz madaniy farqlarning ahamiyatini tan olamiz, ammo madaniyatlararo qarama-qarshilikni muqarrar deb hisoblashga qo‘shilmaymiz va milliy qadriyatlarni saqlagan holda muloqotga asoslangan yondashuvni to‘g‘ri deb bilamiz. Yu.M.Lotman madaniyat rivojini bosqichma-bosqich o‘zgarish va keskin sakrash (“portlash”) uyg‘unligi sifatida qaraydi [19]; bu fikr madaniy transformatsiyani madaniy taraqqiyotning sifat bosqichi deb hisoblashimizni quvvatlaydi.

Mahalliy olimlar qarashlari. Mahalliy tadqiqotchilar globallashuv sharoitida ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlik va milliy o‘zlikni anglash masalalariga alohida e’tibor qaratganlar. I.A.Karimov ma’naviyatni jamiyatni tahdidlardan asrovchi kuch sifatida talqin etib, ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi mustahkam immunitet zarurligini asoslagan [8]. Muallif sifatida bu qarashni to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz va uni raqamli muhitda ham dolzarb deb hisoblaymiz. B.Zokirov globallashuvning ziddiyatli jihatlarini yoritgan [5]; biz bu fikrga tayanib, globallashuvga bir tomonlama baho berish to‘g‘ri emas, degan xulosaga keldik. M. Quronov mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatgan [6]; bu ish madaniy transformatsiya sharoitida yosh avlod tarbiyasi alohida e’tiborga loyiq ekanini tasdiqlaydi. A. G‘aniyev G‘arb olamidagi axloqiy muammolarni tahlil qilgan [7]; biz uning fikrlari asosida G‘arb jamiyatidagi oila va axloqiy qadriyatlar inqirozini milliy qadriyatlarimizni baholashda mezon qilib olmaslik kerak, deb hisoblaymiz. O.Bakirov globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni anglashning falsafiy xususiyatlarini o‘rganib, milliy madaniyatni muhofaza qilishda yuksak ma’naviyatning o‘rnini ko‘rsatgan [9]; maqolamiz xulosalari bu fikr bilan hamohang. L.M.Xoliqov global o‘zgarishlarni ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan tadqiq etib, ularni millatlarning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti qonuniyatlari bilan bog‘lagan [10]; biz bu yondashuvni ma’qullaymiz va unga raqamli texnologiyalarning madaniy jarayonlarga ta’sirini qo‘shimcha omil sifatida kiritamiz. Sh.M.Mirziyoyevning asarlari va Taraqqiyot strategiyasi esa madaniy-ma’naviy sohadagi islohotlarning amaliy yo‘nalishlarini belgilab beradi [1; 3; 4].

Ko‘rinib turibdiki, xorijiy tadqiqotlarda asosiy e’tibor axborot jamiyati va globallashuvning umumiy qonuniyatlariga, mahalliy tadqiqotlarda esa ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlik masalalariga qaratilgan. Madaniy transformatsiyani raqamli transformatsiya hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimi bilan uyg‘unlikda ko‘rib chiqish yetarlicha yoritilmagan. Mazkur maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli va sotsiokultural yondashuv, tarixiy-mantiqiy va qiyosiy tahlil, tushunchalarning mazmunini (etimologik jihatdan) tahlil qilish, me’yoriy-huquqiy hujjatlar mazmunini tahlil qilish, sintez va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning manbalari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va asarlari [1–4], mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari [5–19], shuningdek lug‘at va internet manbalari [20; 21] xizmat qildi.

Natija va muhokamalar

Tahlil natijasida “madaniy transformatsiya” tushunchasi aniqlashtirildi. Axborot texnologiyalari ta’sirida madaniy jarayonlar yangi bosqichga ko‘tariladi va bu ilmiy adabiyotlarda “madaniy transformatsiya” tushunchasi orqali ifodalanadi. Mazkur tushuncha jamiyat madaniy tizimida sodir bo‘layotgan chuqur, tizimli va sifat jihatdan yangi o‘zgarishlarni anglatadi. Madaniy transformatsiya – jamiyat madaniyatidagi qadriyatlar, me’yorlar, ramzlar, tafakkur shakllari va ijtimoiy amaliyotlarning tarixiy, ijtimoiy va texnologik omillar ta’sirida sifat jihatdan o‘zgarishi jarayonidir. U madaniy o‘zgarishning chuqur va tizimli shakli bo‘lib, madaniyatning ichki mazmunini qayta shakllantiradi. Madaniy transformatsiya “madaniy o‘zgarish”, “madaniy evolyutsiya”, “madaniy modernizatsiya” kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liq. Biroq, madaniy transformatsiya ushbu tushunchalardan farqli ravishda, jamiyat ma’naviy hayotida yangi qadriyatlar tizimining shakllanishini anglatadi. Shu ma’noda u jamiyat madaniy taraqqiyotining sifat bosqichi hisoblanadi.

Nazariy-metodologik jihatdan madaniy transformatsiya falsafiy yondashuv nuqtai nazaridan inson tafakkuri va dunyoqarashining tarixiy rivoji bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Gegel ta’limotiga ko‘ra, madaniyat mutlaq ruhning o‘z-o‘zini anglash jarayonidir [14]. Shu nuqtai nazardan, madaniy transformatsiya ruhiy taraqqiyotning

yangi bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi. Madaniy jarayonlar transformatsiyasi, birinchi navbatda, jamiyatning ma’naviy sohasiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Chunki milliy-ma’naviy tafakkur va salohiyat jamiyat taraqqiyotini, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy omillardan sanaladi.

“Transformatsiya”ning mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, transformatsiya [lot. transformatio – qayta o‘zgarish, qayta hosil bo‘lish (genetikada)] – hujayraga yot DNK kirishi natijasida uning irsiy xususiyatlari o‘zgarishi; prokariotlarda genetik material almashinish usullaridan biri [20; 21]. Ushbu ta’riflardan ma’lumki, transformatsiya tushunchasi birinchi navbatda genetik va biologik tushuncha sifatida fanga kirgan.

Madaniy jarayonlarning transformatsiyalashuvi, birinchi navbatda, mafkuraviy tahdidlarning jamiyatga kirishiga “zamin” yaratadi. Bu jarayonda global internet tarmog‘i muhim va asosiy vositalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi vaqtda global kompyuter tarmog‘ida g‘oyalarni tezlik bilan tarqatish dasturlari keng rivojlanmoqda. Axborotlarga arzon ega bo‘lish, ularni erkin tarqatish va qabul qilish imkoniyatlari internetni shaxs va omma ongiga mafkuraviy tahdidning samarali vositasiga aylantirdi. V. Kroskoning fikricha, internet yaqin kelajakda mafkuraviy tazyiq vositasi sifatida matbuot va televideniyaga nisbatan samarali vositaga aylanishi mumkin. Bu nazariya global tarmoqdagi ma’lumotlarning nisbatan kamroq senzura tahdidi ostida bo‘lishi va ma’lumot muallifini topish qiyinligi bilan bog‘liq.

Raqamli transformatsiyaning asosiy maqsadi: 1) inklyuziv, gender jihatdan muvozanatli raqamlashtirishni targ‘ib qilish uchun asosiy davlat institutlarining imkoniyatlarini kengaytirish; 2) raqamli innovatsiyalarning afzalliklarini ko‘rsatish uchun davlat va nodavlat sektorlarida (sog‘liqni saqlash, tilshunoslik, diplomatiya) raqamli yechimlarni joriy etishdan iborat. Raqamli transformatsiyadan kutilayotgan natijalar esa: 1) hukumatga raqamli rivojlantirish milliy dasturiga inklyuzivlik va tenglik tamoyillarini integratsiya qilish bo‘yicha maslahatlar berish orqali O‘zbekistonda inklyuziv raqamli transformatsiyani rag‘batlantirish; 2) hukumatning raqamli ma’lumotlar va sun’iy intellekt bilan ishlash imkoniyatlarini kengaytirish; 3) Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, “Elektron hukumat”

loyihalarini boshqarish markazi, IT Park, Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorlikda inklyuziv raqamli va ma’lumotlarni boshqarish, raqamli ko‘nikmalar, raqamli innovatsiyalar (raqamli salomatlik, sun’iy intellekt)ga e’tibor qaratgan holda O‘zbekistonda raqamli transformatsiyani ilgari surish bo‘yicha uzoq muddatli va keng ko‘lamli tashabbusni ishlab chiqishdan iborat.

Muhokama

Tahlil natijalari madaniy transformatsiya ikki tomonlama xususiyatga ega ekanini ko‘rsatadi: bir tomondan, u raqamli texnologiyalar orqali ma’naviy salohiyatni oshirish va jamiyatni yangilash imkoniyatini beradi, ikkinchi tomondan, mafkuraviy tahdidlar uchun zamin yaratadi. D. Bell va M. Kastells nazariyalari bu jarayonning texnologik asoslarini, Gegel va K. Girts qarashlari esa uning ma’naviy va ramziy mazmunini tushunishga yordam beradi [11; 12; 14; 15]. Muallif fikricha, bu yondashuvlarni birlashtirish, ya’ni transformatsiyani texnologik va ma’naviy jarayonlarning birligi sifatida o‘rganish eng to‘g‘ri yo‘ldir.

Xorijiy nazariyalar globallashuv sharoitidagi o‘zgarishlarni umumiy tarzda tavsiflasa, mahalliy tadqiqotlar ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlik va milliy qadriyatlarni muhofaza qilish zarurligini ta’kidlaydi [5–10]. Bizning xulosamizcha, ikkala yondashuvni uyg‘unlashtirish zarur: xorijiy nazariyalar jarayonlarni tushuntirishga xizmat qilsa, mahalliy qarashlar ularni milliy manfaatlar nuqtai nazaridan baholashga yordam beradi.

G‘arbda axloqiy va oila qadriyatlari yo‘qolib borayotgan, aholi soni keskin kamayib ketayotgan bir vaqtda, bizning asrlar davomida shakllanib, tarix sinovidan o‘tgan ma’naviy qadriyatlarimizni insonlar orasidagi o‘zaro aloqadorlikning noto‘g‘ri shakli sifatida baholash asossizdir [7]. Shu bois jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqishga qaratilgan chora-tadbirlar [2] madaniy transformatsiyaning milliy qadriyatlarga tayangan, sog‘lom yo‘nalishini ta’minlashning samarali usuli hisoblanadi. Raqamli transformatsiyada inklyuzivlik va gender muvozanatiga e’tibor qaratilishi ham bu yo‘nalishni qo‘llab-quvvatlaydi. Kelgusida internetning yoshlar ongiga ta’sirini aniq

ijtimoiy so‘rovlar asosida o‘rganish va madaniy transformatsiyani baholash mezonlarini ishlab chiqish istiqbolli tadqiqot yo‘nalishi bo‘la oladi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalarining o‘zgarishi har qanday jamiyat hayotini tubdan isloh qilish zaruratini asoslaydi. Madaniy transformatsiya jamiyat taraqqiyotining tabiiy va muhim zaruriy jarayoni hisoblanadi. U madaniyatning, xususan madaniy jarayonlarning sifat jihatdan yangilanishini ta’minlaydi, jamiyatning ma’naviy salohiyati oshishiga xizmat qiladi. Madaniy transformatsiya – jamiyat madaniyatining tarixiy, ijtimoiy va texnologik omillar ta’sirida qadriyatlar va ijtimoiy-ma’naviy tizimining qayta shakllanish jarayonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

2. Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevral PF-5938-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2020 y., 0970-son, 255-modda.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

4. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. Toshkent: O‘zbekiston, 2018. 202 b.

5. Zokirov B. Globallashuv ziddiyatlari // Tafakkur, 2004. № 1. B. 29.

6. Quronov M. Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi. Toshkent: Akademiya, 2008.

7. G‘aniyev A. G‘arb olamidagi axloqiy muammolar. Toshkent: Voris, 2007. 26 b.

8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

9. Bakirov O. Globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni anglashning falsafiy xususiyatlari // O‘zMU xabarlari. Falsafa. 2024. № 1/6/1.

10. Xoliqov L.M. Global o‘zgarishlar sharoitida O‘zbekistonning ijtimoiy-dunyoviy davlat sifatidagi maqomi (ijtimoiy-falsafiy tahlil) // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – 2023. – № 10 (3).

11. Bell D. The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. New York: Basic Books, 1973.

12. Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 1996.

13. Giddens A. The Consequences of Modernity. Cambridge: Polity Press, 1990.

14. Hegel G.W.F. Phenomenology of Spirit / Transl. by A.V. Miller. Oxford: Oxford University Press, 1977.

15. Geertz C. The Interpretation of Cultures: Selected Essays. New York: Basic Books, 1973.

16. Bauman Z. Liquid Modernity. Cambridge: Polity Press, 2000.

17. Appadurai A. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1996.

18. Huntington S.P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. New York: Simon & Schuster, 1996.

19. Лотман Ю.М. Культура и взрыв. Москва: Гнозис; Прогресс, 1992.

20. https://ru.wikipedia.org/wiki/transformatsiya.

21. https://kartaslov.ru/znacheniye-slova/transformatsiya.